

NOTARIAT INSTITUTE: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND COMPARATIVE ANALYSIS

4th year student of Tashkent State Transport University

Beksultan Pulatov Sherzod ogli

Abstract

This article is devoted to the topic "The role of the notary institution in civil law and directions of legal reforms", and a comparative analysis of the national experience of Uzbekistan and the experience of foreign countries (the USA and Europe) is made. The notary institution is considered as an important institution in civil law, its advantages (ensuring the validity of transactions, protection of rights) and disadvantages are discussed. The purpose of the study is to study the possibilities of improving the notary institution in the legal system of Uzbekistan.

Keywords: Notary Institute, system improvement, US and European notary institutes, electronic archive, digitization, responsibility.

NOTARIAT INSTITUTI: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL

Toshkent davlat transport universiteti 4-bosqich talabasi

Beksulton Po'latov Sherzod o'g'li

Annotatsiya

Mazkur maqola "Notariat institutining fuqarolik huquqidagi o'rni va huquqiy islohotlar yo'nalishlari" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekistonning milliy tajribasi hamda xorijiy mamlakatlar (AQSh va Yevropa) tajribalari qiyosiy tahlil qilingan. Notariat instituti fuqarolik huquqidagi muhim institut sifatida ko'rib chiqiladi, uning afzalliklari (bitimlarning haqiqiylikini ta'minlash, huquqlarni himoya qilish) va kamchiliklari muhokama etiladi. Tadqiqotning maqsadi – notariat institutini O'zbekiston huquqiy tizimida takomillashtirish imkoniyatlarini o'rganish.

Kalit so'zlar: Notariat instituti, tizimni takomillashtirish, AQSh va Yevropa notariat instituti, elektron arxiv, raqamlashtirish, mas'uliyat.

So'nggi yillarda notariat instituti muhim o'rin egallamoqda. Notarius – bu bitimlar va hujjatlarning haqiqiylikini tasdiqlovchi, huquqlarni himoya qiluvchi va fuqarolarning manfaatlarini ta'minlovchi shaxs. Bu institut fuqarolik huquqiy munosabatlardagi nizolarni oldini olishga va sud yukini kamaytirishga yordam beradi. Mavzuning

dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda huquqiy islohotlar doirasida notarius tizimi takomillashtirilmoqda, masalan, nodavlat notariuslar joriy etildi va raqamlashtirish amalga oshirildi. Bu bitimlarning sifatini oshirishda va korrupsiyani kamaytirishda muhim o'rinni tutmoqda. Ammo hali ham muammolar mavjud bo'lib: ayrim chekka joylarda notariuslar soni yetarli emasligi, xizmatlarning qimmat va cheklanganligida ko'rishimiz mumkin.

Fuqarolik huquqida notariusning o'rni katta, chunki u bitimlar (masalan, ko'chmas mulkni sotish, vasiyatni rasmiylashtirish) ning haqiqiylikini ta'minlaydi va huquqiy xavfsizligini oshiradi. O'zbekistonda bu institut 1996 yilda qabul qilingan "Notariat to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-343-son) asosida tartibga solinadi, 2019-2020 yillardagi islohotlar (masalan, PF-5816-son Farmon) nodavlat notariuslarni joriy etdi.

O'zbekiston Respublikasida notariat instituti fuqarolik huquqining muhim qismi bo'lib, u bitimlar va hujjatlarning haqiqiylikini ta'minlash orqali fuqarolar huquqlarini himoya qiladi. Notariat instituti nisbatan rivojlangan bo'lib, fuqarolik huquqidagi nizolarni oldini olish, huquqiy xavfsizlikni oshirish va sud tizimining yukini kamaytirishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu institut 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan "Notariat to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-343-son) ga asoslanadi, u 2024 yilga qadar bir nechta o'zgartirishlar kiritilgan va 2025 yilda yangi islohotlar bilan takomillashtirilgan. Qonun notariusni jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy institut sifatida belgilaydi. Notariuslar davlat notarial idoralari va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar bo'lib, ular teng huquqlarga ega, ammo davlat notariuslari ko'proq idoraviy nazorat ostida¹.

O'zR FK ga ko'ra, notarius fuqarolik huquqidagi bitimlar (masalan, ko'chmas mulk oldi-sotdisi, hadya, garov, lizing kabi shartnomalar) ni tasdiqlaydi. FKning 110-moddasiga ko'ra, bitimlarni notarial tasdiqlash: "Bitimni notarial tasdiqlash ushbu Kodeksning 107-moddasi talablariga mos keladigan hujjatda notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlovchi ustxat yozib qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi"². Belgilangan ba'zi bitimlar notarial tasdiqlanishi shart, masalan, ko'chmas mulk bilan bog'liq shartnomalar, nikoh shartnomalari va vasiyatlar. Notarius bitimlarning haqiqiylikini, taraflarning huquq va majburiyatlarini tushuntirib, huquqiy xavfsizlikni ta'minlaydi. Shuningdek, notarius vasiyatlarni tasdiqlaydi va vorislik ishlarida ishtirok etadi (FK

¹<https://lex.uz/docs/-54458>

² <https://lex.uz/mact/-111189>

ning 1125-1130-moddalari). 2025 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-280-son qarori (2025 yil 9 sentyabr) asosida notariat institutini yanada rivojlantirish va axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rildi. Ushbu qarorga ko'ra, 2025 yil 1 dekabrda notarial tasdiqlangan nikoh shartnomalari nusxasini "Notarius" axborot tizimiga kiritish majburiy bo'ldi, bu esa huquqiy jarayonlarni shaffoflashtiradi va ma'lumotlar bazasini yaxshilaydi.

Notarius maqomiga ega bo'lish uchun oliy yuridik ma'lumotga, 3 yillik ish stajiga va imtihondan muvaffaqiyatli o'tish talab qilinadi ("Notariat to'g'risida"gi qonunning 8-moddasi). Notariuslar maxfiylik, mustaqillik va adolat prinsiplariga rioya qiladi, ularning harakatlari sudda dalil sifatida qabul qilinadi. Milliy tajribaning afzalliklaridan: bitimlar xavfsizligi, sud yukini kamaytirish (nizolar 20-30% kamaygan), huquqiy maslahat berish imkoniyatining mavjudligida ko'rishimiz mumkin. Kamchilik sifatida xizmatlarning qimmatligi (to'lovlar BHM asosida), notariuslar soni yetarli emas (ayniqsa, qishloq joylarda), chekke hududlarda raqamlashtirish sekin amalga oshirilmoqda. 2019-2020 yillardagi islohotlar (masalan, E-Notarius portali) xizmatlarni onlayn amalga oshirishda yordam bermoqda, shuningdek 2025 yilda PQ-280-son qarori 2025-2027 yillarda notariat institutini yanada rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqladi, bu esa zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu "yo'l xaritasi"ga ko'ra, 2026 yil 1 martdan nizosiz talablar bo'yicha notariuslar ijro xatlarini yozish tartibini joriy etadi, bu fuqarolik huquqidagi majburiyatlarni tezroq ijro etishga imkon beradi.

O'zbekiston tajribasini rivojlantirish uchun xorijiy tajribalarni o'rganish zarur, chunki islohotlar nodavlat notariuslarni kengaytirish, raqamlashtirish va malaka talablarini kuchaytirishga qaratilgan. Masalan, 2025 yilda notariuslarning qo'shimcha vakolatlari (masalan, elektron tasdiqlash) kengaytirilmoqda, bu fuqarolik huquqini zamonaviy talablarga moslashtiradi.

Notarius tizimi mamlakatlarning huquqiy tizimiga (ommaviy huquq yoki fuqarolik huquq) bog'liq ravishda farq qiladi. AQSh va Yevropada notarius instituti ancha rivojlangan va qonuniy asosga ega bo'lib, uning rivojlanishi huquqiy islohotlarga qaratilgan. Amerika Qo'shma Shtatlarida notarius instituti umumiy huquq (common law) tizimiga asoslanadi va notariuslarning roli cheklangan, asosan hujjatlarning autentifikatsiyasi bilan bog'liq. AQShda notariuslar huquqiy maslahat bermaydi, faqat hujjatlarning haqiqiylikini tasdiqlaydi, imzo va shaxslarni tekshiradi. Bu institut shtatlar darajasida tartibga solinadi, masalan, Uniform Notary Act (UNA) va Revised Uniform Law on Notarial Acts (RULONA, 2010 yil) orqali. RULONA notariuslarning

vakolatlarini belgilaydi va ularning harakatlarini standartlashtiradi, ammo federal darajada emas. Masalan, Kaliforniya shtatida notariuslar bitimlar (mulkni sotish, ishonchnoma, vasiyat) ni tasdiqlaydi, ammo huquqiy hujjatlar tayyorlash advokatlarning vazifasiga kiradi. Notarius bo'lish uchun qisqa kurs (3-6 soat) va imtihon yetarli, oliy huquqiy ma'lumot shart emas, ammo sug'urta va malaka sertifikatini talab qilinadi.³ Fuqarolik huquqi tizimida notariuslarning roli asosan autentifikatsiya va guvohlikdan iborat: 2025 yil ma'lumotlariga ko'ra, notariuslar 70-80% bitimlarda ishtirok etgan, masalan, mulkiy bitimlar, oilaviy vasiyatlar va tijorat ishonchnomalarda. Notarius tasdiqlagan hujjatlar sudga dalil sifatida qabul qilinadi, ammo huquqiy mas'uliyati pastligi sabab, advokatlar kerak bo'ladi. Afzalligi: tez va arzon xizmatlar (masalan, tasdiqlash 10-50 dollar), jarayon oddiy va raqamlashtirilgan. Kamchiligi: huquqiy maslahat yo'qligi tufayli xatolar ko'p bo'lishi mumkin, nizolar sudga hal qilinadi. AQShda onlayn notariuslik (Remote Online Notarization – RON) rivojlangan, masalan, Florida shtatida videokonferensiya orqali tasdiqlash mumkin, bu pandemiya davrida (2020 yildan) keng tarqalgan va 2025 yilda 40 shtatda qo'llanilmoqda. Statistika ko'ra, RON xizmatlari bitimlar tezligini 50% oshirgan va masofaviy joylarda foydalidir. Shuningdek, notariuslarning mas'uliyati sug'urta orqali himoyalangan, masalan, xato uchun 10 000 dollar sug'urta majburiy.

AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, notarius tizimi oddiy va moslashuvchan, ammo huquqiy maslahat cheklovi tufayli advokatlar bilan hamkorlik zarur. Bu model fuqarolik huquqidagi bitimlar tezligini oshiradi.

Yevropa Ittifoqida (EU) notariat instituti fuqarolik huquq (civil law) tizimiga asoslanadi va notariuslar katta vakolatlarga ega bo'lib, huquqiy maslahat beradi, hujjatlar tayyorlaydi va bitimlarning huquqiy to'g'riligini ta'minlaydi. EUda notarius tizimi Council of the Notariats of the European Union (CNUE) orqali muvofiqlashtiriladi va notariuslarning prinsiplari (mustaqillik, maxfiylik, adolat) umumiydir. Masalan, Frantsiyada notariuslar mulk bilan bog'liq bitimlarni to'liq boshqaradi, hujjat tayyorlaydi va huquqiy maslahat beradi; Germaniyada esa vasiyat va vorislik ishlarida ishtirok etadi. Notarius bo'lish uchun oliy huquqiy ma'lumot, 3-5 yillik tajriba va maxsus imtihondan o'tish talab qilinadi, shuningdek, sug'urta va malaka sertifikatini majburiy. Yevropada notariuslar mustaqil va mas'uliyatli: ularning tasdiqlagan hujjatlari sudga avtomatik qabul qilinadi va huquqiy kuchga ega. Statistika ko'ra, Yevropada notariuslar orqali hal qilingan bitimlar 90% haqiqiy

³ Law on Notarial Acts, 2021 Revised <https://www.uniformlaws.org/committees/community-home?CommunityKey=e5350d2e-df77-4dfd-8cf0-eeef41cc09f1>

bo'ladi, sud nizolari 40-50% kam. Masalan, Italiyada notariuslar tijorat bitimlarida maslahat beradi va hujjatlar tayyorlaydi, Fransiyada esa mulkiy bitimlarning 100% notarial tasdiqlanadi. Afzalligi: huquqiy maslahat va xavfsizlik (xato uchun notarius shaxsiy mas'uliyatda), nizolar kam. Kamchiligi: xizmatlar qimmat (masalan, mulk bitimi uchun 1-2% to'lov) va jarayon uzoq (bir necha kun). EUda raqamlashtirish rivojlangan, masalan, Italiyada onlayn tasdiqlash va elektron arxiv mavjud, Germaniyada videokonferensiya orqali notariuslik (2020 yildan) amalda. 2025 yil ma'lumotlariga ko'ra, EUda raqamli notariuslik xizmatlari 60% oshgan, bu fuqarolik huquqidagi masofaviy bitimlarni osonlashtirgan. Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, notariuslar huquqiy maslahat berish orqali fuqarolik huquqini mustahkamlaydi, ammo xarajatlar yuqori.

AQSh va Yevropa tajribalarini taqqoslaganda, AQShda notariuslarning roli cheklangan (autentifikatsiya va guvohlik), Yevropada esa keng (huquqiy maslahat, hujjat tayyorlash va mas'uliyat). AQShda jarayon tez va arzon, Yevropada esa xavfsiz va batafsil. O'zbekiston tajribasi Yevropa modeliga yaqin (huquqiy maslahat va tasdiqlash), ammo AQShdagi tezlik va raqamlashtirishni joriy etish mumkin. Umumiy afzallik: ikkala tizimda ham notarius sud yukini kamaytiradi (AQShda 30%, Yevropada 50%). Kamchilik: AQShda huquqiy maslahat yo'qligi, Yevropada qimmatligi. Xorijiy tajribalar O'zbekiston uchun foydali: nodavlat notariuslarni kengaytirish, raqamlashtirish va malaka talablarini kuchaytirishdan iborat.

Xulosa

Xorijiy tajribalarning tahlili, xususan AQSh va Yevropa Ittifoqi (EU) misolida, notarius institutining samaradorligini tasdiqlaydi. AQShda notariuslarning roli cheklangan (umumiy huquq tizimi, autentifikatsiya va guvohlik), Revised Uniform Law on Notarial Acts (RULONA, 2010 yil) asosida tartibga solinadi va onlayn notariuslik (RON) rivojlangan, natijada bitimlar tezligi 50% oshgan. Yevropada esa notariuslar katta vakolatlarga ega (fuqarolik huquq tizimi, huquqiy maslahat va hujjat tayyorlash), Council of the Notariats of the European Union (CNUE) orqali muvofiqlashtiriladi va tasdiqlangan hujjatlar sudda avtomatik qabul qilinadi, sud nizolari 40-50% kamaygan. Taqqoslashda O'zbekiston tajribasi Yevropa modeliga yaqin (huquqiy maslahat va mas'uliyat), ammo AQShdagi tezlik va raqamlashtirishni qo'shish foydali bo'ladi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, notarius tizimi huquqiy xavfsizlikni oshiradi, ammo xarajatlar va malaka talablarini optimallashtirish zarur. O'zbekistonda bu tajribalarni moslashtirish orqali fuqarolik huquqi yanada samarali bo'ladi, masalan, RON tajribasini joriy etish masofaviy joylarda xizmatlarni osonlashtiradi.

2025 yilgi PQ-280-son qarori notariat institutini rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlab, nodavlat notariuslarni kengaytirishni nazarda tutadi, hamda Fuqarolik kodeksining 163-moddasi bitimlar tasdiqlashni tartibga soladi. Xorijiy tajriba asosida: Yevropada (Frantsiya va Germaniya) notariuslar katta vakolatlarga ega bo'lib, huquqiy maslahat beradi va bitimlar tayyorlaydi (CNUE standartlari). AQShda nodavlat notariuslar keng tarqalgan va vakolatlari cheklangan, ammo tez xizmat ko'rsatadi (RULONA asosida). O'zbekiston bu tajribalarni qo'llab, nodavlat notariuslarni Yevropa modeliga yaqinlashtirishi mumkin. Natijada Notariuslar soni 2 baravar oshishi, fuqarolik huquqidagi bitimlar tezligi va sifati yaxshilanishi, sud nizolari 20-30% kamayishi kutilmoqda.

E-Notarius portalini takomillashtirish va onlayn notariuslik (videokonferensiya orqali tasdiqlash) ni joriy etish, masalan, ko'chmas mulk bitimlarini masofaviy tasdiqlash. Elektron arxiv va ma'lumotlar bazasini yaratishni majburiy qilish. Normativ asos: "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasi notarial harakatlarni elektron shaklda amalga oshirishni ta'minlaydi. 2025 yilgi PQ-280-son qarori notariat institutini axborot texnologiyalari bilan ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi, jumladan, "Notarius" axborot tizimini kengaytirish. 2025 yilgi 3235-5-son buyrug'i elektron ma'lumotlar bankini yuritishni belgilaydi. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi huquqiy tizimni raqamlashtirishni rag'batlantiradi. Xorijiy tajriba: AQShda Remote Online Notarization (RON) rivojlangan (40 shtatda, RULONA asosida), pandemiya davrida bitimlar tezligini 50% oshirgan. Yevropada (Italiya va Germaniya) onlayn tasdiqlash va elektron arxiv mavjud (CNUE standartlari). O'zbekiston bu tajribalarni qo'llab, masofaviy xizmatlarni joriy etishi mumkin. Natijada xizmatlar tezligi 2 baravar oshishi, qishloq joylarda foydalanish imkoniyati kengayishi, huquqiy jarayonlar shaffofligi yaxshilanishiga imkoniyat yaratiladi.

Notarius bo'lish uchun malaka talablarini kuchaytirish (oliy huquqiy ma'lumot, 3-5 yillik tajriba, yillik malaka oshirish kurslari) va Adliya vazirligi orqali notariuslar faoliyatini yillik monitoring qilishni joriy etish. Xato uchun jarimalar va sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish. "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 8 va 18-moddalari malaka talablari va sug'urtani belgilaydi. 2025 yilgi PQ-280-son qarori notariuslar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Fuqarolik kodeksining 163-moddasi notarial tasdiqlashning huquqiy kuchini ta'kidlaydi. Xorijiy tajriba: Yevropada notariuslar uchun oliy ma'lumot va tajriba majburiy (CNUE), malaka oshirish yillik. AQShda malaka sertifikati va sug'urta talab qilinadi (RULONA). O'zbekiston bu tajribalarni qo'llab, malaka tizimini Yevropa standartlariga yaqinlashtirishi mumkin. Bu yaqin kelajakda notariuslar sifati oshishi, xatoliklar kamayishi, fuqarolik huquqidagi

nizolar 15-20% qisqarishiga olib keladi. Notariat instituti O'zbekistonda rivojlanishi uchun xorij davlatlarining shu soha yo'nalishida olib borilayotgan ijobiy tomonlarini qabul qilish doim o'z samarasini bergan. Shunday ekan, qilinishi kerak bo'lgan islohotlar inson manfaati uchun amalga oshirilayotganligi quvonarli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi Qonuni, 1996.
<https://lex.uz/docs/-54458>
2. Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/mact/-111189>
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug'i: "Notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va texnik tisdagi qo'shimcha harakatlar uchun undiriladigan to'lovlarning maksimal miqdorlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-7394898>
4. Law on Notarial Acts, 2021 Revised
<https://www.uniformlaws.org/committees/community-home?CommunityKey=e5350d2e-df77-4dfd-8cf0-eeef41cc09f1>
5. Web manbalar (lex.uz, adliya.uz va boshqalar).